

## SUT VA SUT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MAHSULOT SOTISHDAGI XARAJATLAR HISOBI

*Daniyarov Abduvali Mamasafarovich*  
PUREMILKY WORKS MChJ, Bosh Hisobchisi

**Annotatsiya.** Tuman fermer xo‘jaliklari amaliyotida qo‘llanilishi buxgalteriya hisobi axborotlarini to‘liq va ishonchlilagini ta‘minlash, sut va go‘sht ishlab chiqarish xarajatlarining dastlabki, sintetik va analitik hisobini takomillashtirish imkonini yaratadi. Natijada boshqaruva qarorlari samaradorligi ta‘minlanishi hisobiga fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish hajmi ortadi

**Kalit so‘zlar:** sut mahsulotlari, xom ashyo, xarajatlar, foyda, standart 2017 yil 7 iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining “Sut va sut mahsulotlarining xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiyligi texnik reglamentni tasdiqlash haqida” gi 474-sonli qarori qabul qilindi. Sut va sut mahsulotlarining xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiyligi texnik reglamentni rasmiy e’lon qilingan kunidan boshlab o’n sakkiz oy o‘tgandan keyin kiritilishi belgilangan.

Ushbu texnik reglament O‘zbekiston Respublikasi hududida muomilaga chiqarilgan va oziqaviy maqsadlarda foydalaniladigan sut va sut mahsulotlariga, jumladan hom sut, sut mahsulotlari, sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, tashish va yo‘qotish jarayonlari, sutni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan funksional komponentlarga tegishlidir. Ayni paytda texnik reglament talablari jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy foydalanish uchun keyingi qayta sotish istagisiz tshlab chiqarilgan sut va sut mahsulotlariga va sut va sut mahsulotlaridan foydalanilib yoki ular asosida tayyorlanadigan pazandalik va qandolat mahsulotlariga, oziqaviy va biologik faol qo‘sishimchalar, dori vositalari, xayvonlar uchun oziqalar va nooziqaviy tovarlarga taaluqli emas.

Sut va sut mahsulotlarini xavfsizligiga bo‘lgan talablar quyidagilar asosida shakllantiriladi: - xom ashyo, tayyor sut mahsulotlariga bo‘lgan sanitariya qoidalari, me’yor va gigiyenik normativlar, veterinariya-sanitariya qoidalari va me’yorlar; - sut va sut mahsulotlarini xavfsizligi bo‘yicha qo‘sishimcha talablar; - hom ashyo va mahsulotlarni jo‘natish va saqlashga bo‘lgan talablar; - ekologik xavfsizligiga bo‘lgan talablar.

Sut va sut mahsulotlarini xavfsizligi bo‘yicha qo‘sishimcha talablar quyidagilardan iborat:

- sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarishda ishlab chiqarishda foydalaniladigan xom ashyo va yordamchi materiallar ularni kelib chiqishini tasdiqlovchi jo‘natish hujjatlariga ega bo‘lishi lozim. Xavfsizlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha ular texnik tartibga solish soxasidagi me’yoriy hujjatlar bilan belgilangan talablarga javob berishi lozim;
- sut asosidagi bolalar ovqatlanishi mahsulotlari va xom ashyo ionizatsiyalovchi nurlanish bilan ishlov berilmasligi lozim;
- foydalanishga tayyor ivitqilar va probiotik mikroorganizmlar boshqalaridan xududiy ajratilgan, izolyatsiyalangan ishlab chiqarish xonalarida ishlab chiqarilgan bo‘lishi kerak;
- sut mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalaniladigan fermentli preparatlar aniq texnologik jarayon uchun zarur bo‘ladigan aktivlik va tanlanma xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim;
- sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarishda ishlataladigan texnologik jixozlar, quvurlar, saqlash va jo‘natish idishlari va inventar texnik reglament talablariga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlaydigan, ularni yuvish, tozalash va dezinfeksiyalash imkonini beradigan, oziq-ovqat bilan kontaktda bo‘lishi ruxsat etilgan materialdan.

Mahsulot sotishdan tushgan tushum - xarajatlar = foyda

Xarajatlar to‘g‘risidagi axborot ayniqsa, korxonaning daromad (foyda) solig‘ini hisoblashda muhim ahamiyatga egadir. Korxona va uni boshqarish nuqtainazaridan esa xarajatlarning umumiyligi summasi, alohida ishlab chiqarish bo‘linmlarining unumli hamda unumsiz xarajatlari va boshqalar haqidagi axborotlar yig‘ishni talab etadi.

Fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishda, xo‘jalik operasiyalariga to‘g‘ri buxgalteriya provodkasi berish va hisob registrlarini o‘z vaqtida yuritish uchun xarajatlarni mohiyati va turlarini bilish muhim ahamiyat kasb etib, bu fermer xo‘jaligida boshqaruv hisobining samarali ishlashini ta’minlaydi, shuningdek hisob ma’lumotlari asosida xo‘jalik ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish imkoniyatini oshiradi.

Sut yo‘nalishiga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishda, xo‘jalik operasiyalariga to‘g‘ri buxgalteriya provodkasi berish va hisob registrlarini o‘z vaqtida yuritish uchun xarajatlarni mohiyati va turlarini bilish muhim ahamiyat kasb etib, bu fermer xo‘jaligida boshqaruv hisobining samarali ishlashini ta’minlaydi, shuningdek hisob ma’lumotlari asosida xo‘jalik ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish imkoniyatini oshiradi.

Shunday qilib, sut ishlab chiqarishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari va ular hisobini takomillashtish bo‘yicha quyidagilarni taklif qilamiz:

- Chorvachilik fermer xo‘jaliklarida ozuqa ekin maydonlarini chorva mollari bosh soniga mutanosib joylashtirish;
- Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer va boshqa xo‘jaliklarga ajratilgan sug‘oriladigan yerlarda faqat yem-xashak ekinlari ekish va davlat ehtiyojlari uchun donli ekinlar ekishda foydalanmaslik;.
- Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollari, birinchi navbatda qoramollar sonini ko‘paytirishni rag‘batlantirish;
- Chorva mollarini sotib olish uchun dehqon xo‘jaliklarini imtiyozli mikrokreditlar bilan ta’minalash;
- Barcha toifadagi xo‘jaliklardagi chorva mollariga zooveterinariya servis xizmatlarini yanada yaxshilash maqsadida qo‘srimcha zooveterinariya punktlarini tashkil etish.
- Chorvachilik mahsulotlarini hisobga olishda mo‘ljallangan hujjatlarning standart shakllaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yish;
- Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarini tarkibiga faqat ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan xarajatlarni olib borish;
- Mahsulotlar tannarxini aniqlashni takomillashtirish uchun qoramolchilikda olingan qo‘srimcha mahsulot hisoblangan go‘ng o‘simlikchilikda ishlatalgan go‘ngni ma’lum bir bahoda baholab, o‘simlikchilik xarajatlariga qo‘sib, jami chorvachilik xarajatlaridan chegirib tashlash;
- O‘stirishdagi va boquvdagi mollarning hisobini alohida-alohida hisobga olib borish maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qudbiyev, Nodir Tohiro维奇. (2021). Xalqaro moliyaviy hisob standartlariga o‘tish dolzarbligi - Relevance of the transition to international financial accounting standards. SJ international journal of theoretical and practical research, 1(2), 56–6
2. Темиркулов, А. А. (2019). Государственное управление инвестиционной деятельностью. Проблемы современной науки и образования, (12-2 (145)).
3. Кудбиев, Д. (2022). МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АРЕНДЫ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ И ИХ УЧЕТ. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(1), 57-62.
4. Adilov, B., Xamroyev, Y., & Oblomurodov, E. (2023). YENSEN TENGSIZLIGI VA UNING TENGSIZLIKLARNI ISBOTLASHGA

TATBIQLARI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(4), 183-186.

5. Ташпулатов, А. (2020). Применение социологических исследований в сфере занятости сельского населения. In Современные научные исследования: теория, методология, практика (pp. 35-40).
6. Abduxalimovna, A. Z., & Nabihevich, I. I. (2021). Organization of Long-Term Asset Accounting on the Basis of International Standards. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE, 2(11), 86-92.
7. Mahammadiyev, J. N., Raxmonov, V. N., Amonov, B. S., Abduqahhorov, J. M., & Maxammadiyev, M. N. (2021, December). MICROCAPSULATION COATING MATERIALS AND ITS APPLICATION IN FOOD TECHNOLOGY. In *Archive of Conferences* (pp. 58-60).
8. Oblomurodov, E., & Xamroyev, Y. (2023). HOZIRGI ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ORQALI BOSHQARUV JARAYONINI RAQAMLASHTIRISH. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(4), 172-175.
9. Husan O'zbekxonovich Akbarov, & Yoqubjon Xayitboyevich Xamroyev (2023). RAQAMLI CHORVACHILIK: RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. Academic research in educational sciences, 4 (SamTSAU Conference 1), 325-330.
10. Nurmanova, I., & Mahammadiyev, J. (2023). APPLICATION OF MICROENCAPSULATION TECHNOLOGY IN THE FIELD OF TEXTILES. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 712-715.
11. Остонақулов, Т. Э., Тилавов, Х. М., & Махмудов, Р. З. (2021). ТУРЛИ ЎФИТЛАР ШАРОИТЛАРИДА ҚОВУН ЁЗГИ НАВЛАРИНИ ЎСТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИ. *Инновацион технологиялар*, (3 (43)), 65-67.
12. O'G'Li, M. N. J., & Mahammadiyev, J. N. O. G. L. (2022). QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI SAQLASHNING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, (Conference), 485-488.